QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TAXIATOSH TUMANI HOKIMINING **Q A R O R I**

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ TAQÍYATAS RAYONÍ HÁKIMINIŃ **Q A R A R Í**

2023 - yil 17 - oktabr 229-13-215-Q/23 Taxiatosh tuman hokimligi

Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining 2023-yil 28-iyul kungi “Yo‘l transport hodisalarning oldini olish, avtotransportlar tirbandligi va harakat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi VI-64-125-13-215-K/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

Taxiatosh tumani Adliya bo‘limining taqdimnomasi, Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining 2023-yil 28-iyul kungi “Yo‘l transport hodisalarning oldini olish, avtotransportlar tirbandligi va harakat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi VI-64-125-13-215-K/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 6-moddasini rahbarlikka olib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Taxiatosh tumani Adliya bo‘limining taqdimnomasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (G‘.Bektemirov), tuman Ichki ishlar bo‘limi (I.Saliyev) va mas’ul tashkilotlar birgalikda:

- transport hodisalarining oldini olish, avtotransportlar tirbandligi va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida A.Farobiy va M.Jumabaev ko‘chalarini bir tomonlama harakatlanishi uchun 3.1 “Kirish taqiqlanadi” hamda M.Koblanov ko‘chasida joylashgan IIB binosi oldida yo‘l xarakati xavfsizligini tartibga soluvchi 3.28 “To‘xtab turish taqiqlanadi” yo‘l belgilarini o‘rnatish choralari ko‘rilsin;

- mazkur qaror umummajburiy qaror ekanligini inobatga olib, tumani hokimining qarori loyihasini “regulation.gov.uz” portaliga joylashtirish va tegishli xulosasini olish ishlarini amalga oshirsin;

3. Tuman Obodonlashtirish boshqamasi (Z.Sabirov);

yuqorida ko‘rsatilib o‘tilgan ko‘chalarga tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish choralarini ko‘rish topshirilsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limining yo‘l harakati xavsizligini ta’minlash bo‘yicha mas’ul inspektori (A.Yusupov) mazkur qaror qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab avtotransport vositalarining o‘rnatilgan yo‘l belgilariga qat’iy amal qilishini nazorat qilish va tegishli choralar ko‘rish topshirilsin.

5. Taxiatosh tuman hokimining 2023-yil 30-avgust kungi 195-13-215-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari G‘.Bektemirov va tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i I.Saliyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.Kurbanov**